

HUVAYDO LIRIKASIDA BADIY SAN'AT VA TASVIRIY VOSITALARNING QO'LLANILISHI

Majidova Diyora Abdumalik qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

O'zbek Filologiyasi fakulteti.

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi

diyoramajidova30@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Huvaydo lirikasining mavzu ko'lami va badiiy xususiyatlari haqida so'z boradi. Huvaydoning til bezaklari, so'z o'yinlari, Qur'on va Hadisda keltirilgan iboralardan o'rinli foydalanganligi, she'rlarida qo'llanilgan badiiy san'atlar va obrazlarning mahorat bilan qo'llanilganligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Huvaydo, majoziy ishq, tasavvuf, nafs, Yassaviy, badiiy san'at, kitobat, istifhom.

So'fiylarning e'tiqodiga ko'ra, dinning mohiyatida ham ishq bor, – muhabbat bor. Ma'lumki, majoziy ishq atamasi insonning insonga muhabbati va olam go'zalligiga oshiqqligini bildiradi. Ammo majoziy muhabbat o'tkinchidir. Hech qachon so'nmaydigan haqiqiy muhabbat – bu Allohni dildan sevishdir. Chunki undan boshqa barcha narsa – soxta, ya'ni yasalgan yoxud yaratilgan. Hatto inson ham. Shuning uchun eng buyuk go'zallik – Tangrining o'zi. Go'zallikda undan o'tadigan hech narsa yo'q bu olamda va bo'lishi ham mumkin emas.

Huvaydo lirikasidagi ishq – ana shu mazmundagi ishqdir. Quyida keltirilgan g'azalda ilohiy ishq o'tidan tug'ilgan dard ko'zga tashlanadi va tazod san'atini yuzaga chiqaruvchi *tun – kun, shodlik – g'am* so'zlarini uchratamiz:

Telbai ishqing bo'lib aybu qabohat so'zladim,
Elga kulgu bozini tiflona bo'ldum oqibat.
Qay kuni sevdim seni ketti ko'nguldin shodlik,
Tunu kun g'am xaylig'a hamxona bo'ldum oqibat.
El-u yurtimdin kechib, uzlatnishinlik xo' qilib,
Chug'z yanglig' sohibi vayrona bo'ldum oqibat...

Shoir g'azallarida “yor”, “may”, “boda”, “jom” kabi tasavvufiy ramz va timsollar vositasida ishq ilohiy mazmunini sharh etishga harakat qiladi, qalbida qaynab turgan ishq jazbasi beixtiyor uning tiliga ko'chadi. Quyidagi g'azal mazmunan sharhi hol bo'lsa-da, shoir unda faqat o'z holini sharhlashni maqsad qilib olmaydi. She'r shakli, vazni, qofiyasi, radifi shoir uchun birlamchi unsur emas, balki uning “ahli tab”dan ekanligi, fitratida go'zallikka moyilligi natijasidir. Huvaydo g'azallarini o'qigan she'rxon she'rdagi go'zal shakl va turli badiiy san'atlarni nazardan qochiradi.

Ko'hiqof, Xizr so'zlari talmeh san'atini, *yorni ko'rmoq* va *ko'ra olmaslik* tazod san'atini tashkil qilmoqda. O'quvchi esa bunday san'atlarni ilg'amasdan, uning qalbini ham dard ishg'ol etadi:

Vah mani boshimg'a tushti, na qilay, savdoi ishq,
 Ayta bersam zarrasig'a toqat etmas Ko'hiqof.
 Behudu mastona yurmishman o'zumni bilmayin,
 Kimni ko'rsam Xizr deb, ilgin tutub qildim tavof.
 Bir sado chiqdi qadahdin: "Yorni ko'r mayda", deb,
 "Ko'ra olmassan – dedi, – to etmaguncha mayni sof".

Huvaydo she'riyati mazmun, g'oya jihatidan qanchalik o'tkir mushohadaga boy meros bo'lsa, badiiy mahorat nuqtai nazaridan shunchalik o'ziga xos va yangichadir.

Huvaydoning quyidagi ruboiysi bir qancha badiiy san'atlar bilan sug'orilgan. Jumladan, yorning qomatini sarvga, yuzini gulga o'xshatish tashbeh san'atini, uning yuzidan nola chekkan elni qumri va bulbulga, rayhonu binafsha zulfining asiriga, shamshod va sanobar daraxtini qaddi oldida ikki qulga qiyoslab, jonlantirish orqali tashxis san'atini yuzaga chiqarmoqda:

Ey bog'i nazokatda qadi sarv, yuzi gul,
 Ul yuzdin erur ishq eli chun qumriyu bulbul.
 Rayhonu binafsha xati zulfingni asiri,
 Shamshodu sanubar qading oldida ikki qul.

G'ariblarning dillarini og'ritmaslik yassaviyada asosiy g'oyalardan bo'lsa, ko'ngil zikri, ko'ngil ziyorati naqshbandiyaning mohiyatini belgilovchi xususiyatlaridandir. Bu maslakdagilar inson ko'ngli Allohga muhabbatning muqaddas oshyonidir. Shuning uchun ko'ngilga munosabat Ka'baga munosabatday baholanadi. Huvaydo ham ulug' savobli ibodat – Ka'ba ziyorati, Haj safarining yaqin va to'g'ri yo'lini ko'rsatadi. Quyidagi baytning ikkinchi misrasida "Yo'l bosib Ka'ba sari borish"ga imkon topolmagan mo'min, birinchi misradagi g'aribning ko'nglini shod aylash bilan mashg'ul bo'lishini dalillash orqali tamsil san'atining namunasini ko'rishimiz mumkin:

Bir g'aribning ko'nglini shod aylasang,
 Yo'l bosib Ka'ba sari bormoq abas.

Shoirning badiiy mahoratini Qur'on oyatlari va payg'ambar hadislarini she'r ichida keltirish yoki ularning mazmunini she'rda ifodalash san'ati iqtibosning yorqin namunalarini ham uchratamiz:

Rasul aydi: "Xudo suyg'on quliga dardu g'am berdi",
 Tasadduqi g'am bo'lay, har qaysi odam loyiqi g'ammu?

Quyidagi g'azalda ham shoirning badiiy mahorati yuksakligiga guvoh bo'lamiz. "Xoki poyi yaxshilar bo'l" nasihati orqali iqtibos san'atining namunasini ko'ramiz:

Xoki poyi yaxshilar bo'l, xok bo'lmasdin burun,

Bu qaro yer qo'yni senga chok bo'lmasdin burun.

“Xok” inson tanasi azalda Tangri tomonidan yaratilgan oddiy ashyo tuproqdir. “Xoki poyi yaxshilar bo'lmoq” majoziy ma'noda yaxshilar ayog'i ostida tuproqdek to'shalmoq, yaxshilar oyog'ining gardiga aylanmoq. Uning asl mazmuni esa yaxshi odamlarga fidoyi, sadoqatli muhabbatli bo'lmoqlikka da'vatdir. “Xoki poyi yaxshilar bo'l” nasihati, ehtimol, quruqdan-quruq aytilganida, bizga yaxshi tushunarli va ta'sirli bo'lmasdi. Inson ruhiga ibratli ta'sir etish uchun shoir nasihatni taqdiri azal oxiratidan dalil keltirib izhor etadi. Qismat shundayki, odam hayotdan ko'z yumgach, qaro yer qo'yni unga “chok” bo'ladi, ya'ni qabr qazilib, marhum dafn etiladi. Binobarin, shoir so'zini ana shunday mantiqiy asoslab turib saboq beradiki, “Ey odamzod, baribir bir kun tuproqqa qorisharkansan, undan burunroq tuproqsifatlik kasb etib, yaxshilarning fidosi bo'lgin”.

Nafsning manfur qiyofasi islom ma'rifati bo'lmish tasavvuf adabiyotida ham keng talqin etilgan. Ayniqsa, yassaviya tariqatida nafs bilan kurash markaziy o'rin egallagan. Islom va tasavvufdagi nafsga munosabat masalasi Huvaydo ijodiyotida ham markaziy o'rin tutadi. Huvaydoning “Nafsing seni qattig' balo” deb boshlanadigan g'azali o'zbek mumtoz adabiyotidagi eng nodir pandnomalardandir:

Nafsing seni qattig' balo, albatta, urgil poy ango,
Har dam seni o'tqa solur, zinhor berma roy ango.

G'azalning birinchi satridanoq anglashiladiki, Huvaydo dunyoqarashi Yassaviyning nafs ofatidan ogohlantiruvchi va “nafsni tebkil, nafsni tebkil” tarzidagi nuqtai nazari bilan hamohangdir. Nafsga poy urmoq, nafs itini, nafs devini tepmoq, undan g'olib kelmoq demakdir. Xar dam yondiradi va abadiy xurujiga saboqdir. Aksincha, uning royiga qarash do'zax o'rtoviga mahkum etadi. Mazkur g'azalining o'ziyoq ko'rsatadiki, Huvaydo Yassaviya tariqatining eng yaqin muxlislaridan, Yassaviy hazratlarining muhabbatli izdoshlaridan biridir.

Nafs o'zbek mumtoz adabiyotida yovuz, ochofat, hukmiravon dev tasvirlanadi. Ana shunday tasvirlardan badiiyatda “nafs devi” istioraviy iborasi paydo bo'lgan. Nafs taqozosi bilan har yonga yelib yuguruvchi nafs devi minib olgan bandalarga o'xshatiladi. Bilar-bilmas o'z yelkasiga nafs devini mindirib olgan nafs bandalariga qarata Huvaydo aytadi:

Aytur senga yuklab yukin: “Ul ishni qil, bu ishni qil”
Aksini aylab so'zini, hech qilmag'il parvoy ango.

Nafs boshqaruviga berilgan bosh vujudni og'ir ahvolga soladi. Nafs devi o'z asirini imonidan ayiradi, undagi shukr-u qanoat tuyg'usini so'ndiradi. “Ul ishni qil, bu ishni qil” deya uni tobora yangidan-yangi yutuqlar, amalu martabalar, shon-shuhrat ilinjida hirsu havas qasriga tomon tortadi. Jahoniy tashvishlarga chulg'angan odamzod bundayin xush yoqadigan narsalardan o'z nafsini tiyishga ojizlik qiladi. Aslida, Huvaydo nazdida, nafs devi bilan kurashishning yo'li juda oddiy: iroda va imonini

mustahkam tutib, nafs devi buyrug'ining aksini bajarish, uning qutqulariga parvo qilmaslik.

Nafsning so'ziga quloq solish uni e'zozlash bilan barobardir. Nafsga izzat ko'rsatish esa uni parvarishlashga teng. Parvarishlangan nafs semirib, shishib, kuchayib, isyon sari dadillashib, o'z egasini mag'lub etadi. Huvaydo g'azalning boshidan oxirigacha nafsni jonlantirish orqali tashxis san'atini qo'llamoqda:

Izzatga ul farbeh bo'lub, isyon sari bo'lg'ay daler,
Aylab ayog' ostida xor, cho'g' nayzasini soy ango.

Shuning uchun donishmand Huvaydo nafs manfaatlaridan baland turishni, uni oyoq ostida xor etishni, cho'g' nayzasi bilan sanchib, kuydirib yuborishni nasihat qiladi.

Huvaydo ijodida tasavvufiy g'oya bilan yo'g'rilgan she'rlardan tashqari quyidagi mahoratlarini ham ko'rishimiz mumkin:

Tabiat go'zalligi nash'asi va uning joziba quvvati hamda jilvasi behad zo'rligini, ul tabiat qo'ynida bulbul kabi fig'on etmoq uchun yuzi gul, lablari xandon deya yorni tasvirlash orqali tashbeh san'atining go'zal namunasini ko'rishimiz mumkin:

Bazm etmakka bog' ila bahoron yaxshi,
May ichmakka mavsumi guliston yaxshi,
Bulbulsifat oldida fig'on etmakka
Bir orazi gul, lablari xandon yaxshi.

Shoirning yana bir xarakterli va chuqur ma'noli g'azaliga e'tibor beramiz. Bunda ham Huvaydonging badiiy mahoratiga qoyil qolish mumkin. *Soqiy, jom, boda, may va daf, tanbur, nay* so'zlari tanosub san'atini yuzaga chiqarmoqda:

Kel ey soqiy, ketur jomi payopay bodani sof et,
Yuritgil kosai davron, bu damlar ham g'animatdur.
Dafu, tanburu benay boda ichmak oncha xo'b ermas,
Qil, ey mutrib, g'azalxonlik, bukun ayyomi ishratdur.

Shu yerda bir narsani aytib o'tish lozim, bu she'rlarning barchasi Hofiz Sheroziyni va go'zal hayot oshig'i Navoiyni juda eslatadi.

Shoirning quyidagi baytida ham tanosub san'atining go'zal namunasiga guvoh bo'lamiz:

Xur ila jannating netay anda yuzingni ko'rmasam,
Xasta Huvaydo ohiga havz ila kavsaring kuyar.

Baytdagi *xur, jannat, havz, kavsar* so'zlari tanosubning ifodalaridir.

Huvaydo ijodida badiiy san'atlarning yana bir qanchasini uchratishimiz mumkin. Jumladan, lirik qahramonning ichki olami, qalbida mavjlanayotgan tuyg'ulari, pokiza orzularini kimgadir yoki nimagadir murojaat etib so'rash orqali, savollar vositasida aks ettirishini nazarda tutuvchi istifhom san'atining go'zal namunasini guvohi bo'lamiz:

Jamolingni, ayo dilbar, mani bechora ko'rg'aymu?
 Sani ko'rub qiyomat dashtida ko'nglum sevungaymu?
 O'lub ketsam mani miskin yuzungni orzusida,
 Lahad uyida ko'p yotmay, tanim tezroq tirilgaymu?
 Qachon bo'lg'ay qiyomat kun, jamolingga bo'lib vosil,
 Kirib jannatga, yig'lardin ko'zum yoshi tiyilg'aymu?

Shoir lirikasida she'riyatimizda keng qo'llanib kelingan arab alifbosi harflari shaklidan lirik va epik timsollar chizishda hosil bo'ladigan kitobat san'atini ham uchratamiz. Quyidagi baytda ham oshiqning qaddi alif kabi tik edi, ammo yorning hasratida oh urub, egilganligini ko'ramiz:

Man nechuk toqat qilay mundog' jafolig' yorg'a,
 Hasratida oh urub bo'ldi "alif" qaddim "duto".

Navbatdagi baytda ham kitobat san'atining go'zal namunasini ko'ramiz:

"Alif"dek qomatingni, ey nigorim,
 Saloming "lom alif"dek soldi to'lg'ob.

Huvaydoning quyidagi g'azalida tajnis san'atini ifodalovchi *dard* so'zi mahorat bilan qo'llaganiga guvoh bo'lamiz:

Dardi yo'q tanni Huvaydo tan dema,
 Bo'lmasa bir zarra anda dardi ishq.

Huvaydoning pandu adabdan xoli birorta asarini uchratish qiyin. Aksincha, Huvaydo she'riyatining yalpi mohiyatini pandu adab tashkil etadi. Uning nazmi bu fazilati bilan insoniyat, ayniqsa, yosh avlod uchun umrboqiy ma'naviy xazinadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Huvaydo Xojanazar. Devon. – T.: Yangi asr avlodi, 2007. – 303 b.
2. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – 271 b.
3. Zohidov V. Hayotbaxsh badiiyat taronalari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975. – B. 138.
4. G'aniyeva S. Huvaydo. Ko'ngil dardi. – T.: Meriyus. 2009.
5. Huvaydo Xojanazar. Devon. – T.: Yangi asr avlodi, 2007. – 303 b.
6. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – T.: Sharq, 1998. – 117 b.